

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI TALABA VA O'QUVCHILARNING
MA'NAVIY YUKSALISHIGA KO'MAKLASHISH MARKAZI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI
YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI TOSHKENT SHAHAR BOSHQARMASI**

**O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI
TOSHKENT SHAHAR HUDUDIIY KENGASHI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI HUZURIDAGI
O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI MASALALARI BO'YICHA
MUVOFIQLASHTIRUVCHI-METODIK MARKAZ**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INVESTITSIYALAR, SAVDO VA SANOAT
VAZIRLIGI O'ZBEKISTON TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH AGENTLIGI
RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR KENGASHI**

“SIFATLI TA'LIM – TARAQQIYOT POYDEVORI”

**mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy
konferensiya to'plami**

2023-yil 20-aprel

Мавлянов Г., Мавлянов П. Редкоземельные элементы: гидрогеохимия, формирование и распределение, экологический статус (приаралье, Узбекистан).....	508
Махсумова Ф. Boshlang'ich maqom ta'limi jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish.....	519
Мамадалиев А. Oqar suvlarlarning geologik ishi va litologik asosdagi morfologik o'zgarishlar	524
Мамаджанова М., Мўминов М., Зокиров Д., Абдурахмонов М., Абидов Б. Ўрмон хўжаликларида эвodia (euodia) дарахт навларини интродукция қилиш истиқболлари.....	530
Мамადийев И. Sharq renessansi - bugungi ta'limning mustahkam poydevori.....	534
Мамажонов И., Толіпов S., Abdullayev S. Milliy ruh va milliy vatanparvarlik armiyaning qudratidir.....	537
Маматалиев А., Хайдаров А. Description of pathomorphological changes of endometriosis.....	540
Маматқулов S. Zamonaviy davlat boshqaruv uslubi – kradosorsing.....	545
Маматов В. The history of Samarkand: Yalangtush Bakhodir and Registon ensemble.....	548
Маматов Р. Споры вокруг художественного метода немецкой писательницы герты мюллер.....	554
Мамаюсупов О., Davlatov O. Anqara muhorabasi.....	557
Мамаюсупова Н. Ўзбекистонда миллий ғоясининг бугунги кундаги аҳамияти.....	563
Манзаров Ю. Мамлакатимизда учинчи ренессансга имкон яратишда маънавий ва тарихнинг роли.....	567
Matnazarov O. Geososiyosiy jarayonlarda Markaziy Osiyo o' rni.....	571
Matniyozova Sh., Sharipova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ifodali nutqning ijtimoiy-pedagogik funksiyalari.....	574
Maxmudov S., Ulug'bekov O. Tijorat banklarning depozit turlari va ularning ishlash mexanizmi.....	577
Maxsumov A., Xajiyev I. ASP.NET yordamida berilganlarni vizuallashtirish....	580
Maxmudov S, Maxmudova D. Mehnat bozorini tartibga solishni mintaqaviy usullari va uning mohiyati.....	583
Meyliyeva Z. Psixologiya fanining tarixi, tuzilishi va ahamiyati.....	586
Mingboyev I., G'aybullayeva M., Elmurotova D. Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili.....	591
Mirjavharova F. Jamiyat yangilanishida gender tengligi masalasi.....	595
Mirzayeva H. Globallashtirish jarayonida o'zbek tili duch kelayotgan muammolarning reklama matnlarini yaratish va tarjima qilish jarayonidagi saviyaga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri, oqibatlar va yechimlari.....	597

tarixiyam urf-odatlar qadriyatlaridayam uzviy bog'liqdir.Markaziy Osiyo davlatlari yagona g'oya asosida birlashish kerak.Chunki hozirgi geosiyosiy jarayon shuni talab qilmoqda.

Foydanilgan adabiyotlar

1. S.Safoyev. Markaziy Osiyo geosiyosati -T.:JIDU.2005.
2. Z.Bejeniskiy. Buyuk shahmat taxtasi.Rus tilidan Ozod Sharafiddinov tarj// jahon adaabiyoti 2004.
3. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida:xavfsizlikka tahdid, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq.O'zbekiston,1997
4. T.Tursunmurotov. Markaziy Osiyo xavsizlikni taminlashda ilmiy texnologik salohiyat omili.Toshkent, 2016
5. A.Samadov. Geosiyosat asoslari Samarqand, 2021
- 6.G.A.Xidayotov. Xalqaro munosabatlar:iqtisod,siyosat,huquq. 2001
7. Fridix Ebert nomidagi Xitoy tadqiqotlar markazi Markaziy Osiyo 2027. Astana 2017

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IFODALI NUTQNING IJTIMOY-PEDAGOGIK FUNKSIYALARI

Sharipova Maxbuba Baxshilloevna

Buxoro davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrasida o'qituvchisi

Matniyozova Shohida Bahodir qizi

Buxoro davlat universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Bog'cha yoshidagi bolaning nutqi ijtimoiy aloqalarni o'rnatish funksiyasini bajara boshlaydi. Buning uchun esa bolada ichki nutq tarkib topishi, monologik xususiyat kasb etib borishi lozim bo'ladi. Maktabgacha yoshda bola nutqining rivojlanishidagi muhim xususiyat nutq tafakkur quroliga aylanishidan iborat. Bola so'z-lug'at boyligining o'sishida 2 muhim tomon — miqdor va sifat tomonlari mavjud. Lug'at boyligining miqdoriy o'sishi D. B. Elkoninning ko'rsatishicha, bevosita bolaning hayot sharoitlari va tarbiyalanish xususiyatlariga bog'liq. So'nggi yillarda u yoki bu yoshdagi bolalar nutqining lug'at tarkibini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda avvalgi tadqiqotlarga nisbatan yuqoriroq miqdoriy ko'rsatkichlar aniqlandi. Jumladan, V.Loginaning ma'lumotlariga ko'ra 3 yoshga kelib, bola lug'atida 1200 ta so'z mavjud bo'ladi, 6 yoshli bolaning aktiv lug'ati esa 3000–3500 so'zni o'z ichiga oladi. Vaholanki, 40–60 yil oldin o'tkazilgan tadqiqotlarda 3 yoshli bolaning lug'ati 400–600 so'zdan, 6 yoshli bolaning aktiv lug'ati esa 2500–3000 so'zdan iborat deb ko'rsatilgan edi. Nutq madaniyati — bu, avvalo, tarbiyachida bo'lishi shart va majburiy sifatlardan hisoblanadi. Bu tarbiyachidagi nutqiy ko'nikma va nutqiy malakalarni hosil qiladi. Bu ko'nikma tarbiyachi faoliyatida takomillashib boradi, maxsus mehnat va mashqlar evaziga

malaka oshiriladi hamda erishilgan muvaffaqiyatlar tufaylar tufayli qobiliyat va mahorat shakllanadi. Bolalar nutq madaniyatiga o'zbek adabiy tilini mukammal egallash asosida erishiladi. Buning uchun esa tarbiyachi adabiy qoidalarini bilish, badiiy adabiyot asarlarini doimiy o'qib borishi, she'rlar yod olishi va bolalar bilan suhbatlar o'tkazish muhimdir. S. N. Karpovanning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolada gap tarkibidan barcha turdagi so'zlarni ajratib olish ko'nikmasini shakllantirish mumkin. Buning uchun ularga so'zlarning mezonlarini, ya'ni so'z tovushlarining majmuasidan iboratligini, so'z doim muayyan mazmunga egaligini anglashi lozim. Albatta buning uchun bolaning yoshiga mos keluvchi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilinganday qilinganda, yoshidan qat'iy nazar bolalarda so'z haqida adektiv va anglangan tasavvurlar paydo bo'ladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni yuksak g'oyaviylik ruhida tarbiyalash ularning ongiga xalq, millat, yurt, jamiyat manfaatlaridan yuqoriroq manfaat bo'lishi mumkin emasligini singdirishi, ularni vatanga, xalqqa muhabbat ruhida va sadoqatli qilib tarbiyalash demakdir. Bunda esa albatta tarbiyachining o'rni beqiyos va muhimdir. Shunday qilib aytganda nutq maktabgacha yoshdagi bolalarning taraqqiy etishlarida katta o'rin tutadi. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi bolaning nutqini o'stirishda atrofdagi insonlarning shuningdek tarbiyachilarning nutq madaniyati rivojlangan bo'lishi muhim sanaladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning eng muhim xususiyati nutqning rivojlanganligi hisoblanadi. Tarbiyachi tomonidan nutq o'stirish to'g'ri rejalashtirib boriladi. Inson nutqi uzluksiz va to'xtovsiz davom etadigan tovushlar oqimidan iborat emas. U turlicha hajmdagi intonatsion birliklarni o'z ichiga oladi:

1. Fraza nutq oqimida kattaroq pauza bilan ajratib aytiladigan nutq birlitarbiyachiir. U ohang va fikriy tugallikka ega bo'lganligi uchun ko'pincha gapga teng keladi. Masalan: Dunyoda boladan aziz narsa yo'q // Bo'lmaydi // Bolalar – kelajagimiz // (O'. Hakimali). Bu nutqiy parchada uchta fraza bor.

2. Takt frazaning bir qismi bo'lib, qisqa pauza bilan ajratib aytiladi. Buning tarkibidagi so'z yoki so'zlar bir bosh urg'u (bir havo oqimi) bilan talaffuz qilinadi. Masalan: Dunyod / xushfe"l, / olij no , / h mish ezgu niy t il n ish qil dig n odamlar / juda ko'p (O.Husanov).

3. Fonetik so'z o'z urg'usiga ega bo'lgan so'z yoki bir urg'uga birlashadigan (bir urg'u bilan talaffuz etiladigan), ikki va undan ortiq so'zshakldir. Takt tarkibidagi fonetik so'zlar soni undagi so'zlarning umumiy miqdori bilan emas, urg'uli so'zlar miqdori bilan belgilanadi, ya'ni takt ichida urg'uli so'z qancha bo'lsa, fonetik so'z ham shuncha bo'ladi: Dashtda / odam aqli shoshadigan / buyuk ishlar / qilinadi // (Y.Shamsharov).

4. Bo'g'in o'pkadan chiqib kelayotgan havo oqimiga berilgan bir zarb bilan aytiladigan tovushlar yoki ayrim bir tovushdir. Unli tovush bo'g'in hosil qiluvchi tovushdir. Shuning uchun so'zda nechta unli tovush bo'lsa, bo'g'inlar soni ham shuncha bo'ladi. Masalan, adolat so'zida uch bo'g'in bor: a-do-lat.

Ilk yoshda nutqni rivojlantirish ikki yo'nalish bo'yicha olib boriladi: bola nutqini takomillashtirish va uning o'z faol nutqini shakllantirish. Ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish chog'ida nutqning talaffuz jihatlarini shakllantirish muddati va sur'atlaridagi individual farqlar juda sezilarli bo'ladi, odatda faol nutq 2-2,5 yoshlarga kelib paydo bo'ladi. Bolaning o'z yaqinlari bo'lgan kattalar bilan muloqotga ehtiyoji nutqni o'z vaqtida va to'g'ri rivojlantirishning hal qiluvchi sharti hisoblanadi. Kommunikativ funktsiya nutqning birlamchi vazifasidir. Ushbu davrda nutq bolani ijtimoiy tajriba bilan tanishtirish, uning faoliyatini kattalar tomonidan boshqarishning eng muhim vositasiga aylanadi, nutq ta'siri ostida barcha psixik jarayonlar qayta quriladi. Bolaning kattalar bilan amaliy hamkorligiga oid vaziyatlarda faol nutqdan foydalanishi nutq shakllanishining uchinchi bosqichiga - uni muloqot vositasi sifatida takomillashtirish davriga o'tishning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Nutq ontogeneziga oid ko'p sonli tadqiqotlar aynan shu bosqichga bag'ishlangan.

Xulosa qilib aytganda, nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash ham til borlig'ini eng oddiy anglashni shakllantirish bilan o'zaro bog'liqdir. Maktabgacha yoshdagi katta bolalar so'zlar, tovushlar, qofiyalar bilan faol o'ynaydilar. Til borlig'ini anglash uning barcha – fonetik, leksik, grammatik tomonlarini qamrab oladi. Nutqqa nisbatan ongli munosabat lug'atni takomillashtirishga (antonimlar, sinonimlar, ko'p ma'noli so'zlarni tushunishga), nutqning tovush madaniyatini (tovush talaffuzi, talaffuz, tinglay olish qobiliyati, ohang ifodaliligi) rivojlantirishga, nutqning grammatik to'g'riligini (morfologiya, so'z hosil qilish, sintaksisni) shakllantirishga, ravon nutqni rivojlantirishga ta'sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" Davlat dasturi. 2022 йил.
2. Кадырова Р.М. Формирования интернациональных и патриотических чувств у дошкольников и шестилеток-учащихся в процессе обучения их русской разговорной, речи. Номзодлик диссертацияси автореферати. Т., 1990.
3. Кадырова Ф.Р. Дидактические игры в обучении детей русской разговорной речи в узбекском детском саду. Номзодлик диссертацияси автореферати. Москва, 1988.
4. Кадырова Ф.Р. Дидактические игры для обучения детей русскому языку. Т., «Ўқитувчи», 1992.
5. Кальцова М.М. Двигательная активность и развитие функций мозга ребенка. Л., 1975.
6. Карпова С.Н. Осознание словестного состава речи детьми-дошкольниками. М., 1968.
7. Қодирова Ф.Р, Қодирова Р.М. Мактабгача ёшдаги болаларга иккинчи тилни ўргатиш методикаси. Т., «Сано-Стандарт» 2004.

TIJORAT BANKLARNING DEPOZIT TURLARI VA ULARNING ISHLASH MEXANIZMI

Maxmudov Sirojiddin Abdullayvich

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi

Ulug'bekov Otabek Ulug'bek o'g'li

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali talabasi

Depozit – pullarni saqlash va ko'paytirib olishning ishonchli usuli. Biroq uning ba'zi xususiyatlarini bilib qo'yish zarar qilmaydi. Moliya sohasi bilan bog'liq har qanday mavzu murakkab, uni tushunish uchun maxsus bilimga ega bo'lish kerakdek. Biroq, keling, depozitlar haqida oson va tushunarli tilda gaplashib olamiz.

Depozit nima?

Depozit yoki omonat – bu pullarni ma'lum vaqtga foyda ko'rish yoki shunchaki saqlash uchun bankka qo'yish. Omonatingizdan bank o'z maqsadlari yo'lida foydalanishi mumkin. Masalan, mijozlarga kredit berish, fond bozorlari va valyuta birjalarida savdo qilish orqali foyda ko'rish mumkin.

Depozitlar miloddan avvalgi VII asrda paydo bo'lgan. Odamlar pullarini mahalliy koinlar qo'lida saqlay boshlagan. Ammo buning evaziga ularga hech qanday foiz to'lanmagan. 808-yilda Yevropadagi ilk banklar pullarni saqlash bo'yicha xizmat ko'rsatishni boshlagan.

Depozit va omonatning farqi nimada?

Aslini olganda, ushbu ikki tushuncha sinonim hisoblanadi. Depozit ingliz tilidan «bank omonati, mablag', saqlash uchun topshirish» deb tarjima qilinadi. Biroq ushbu ikki tushuncha ma'no jihatdan bir-biridan biroz farq qilishi mumkin. "Omonat" deganda faqat pul ko'rinishidagi mablag'lar tushuniladi. Depozit esa keng doiradagi investitsiya vositlarini – qimmatli qog'ozlar, qimmatbaho metallar, bank hisobvarag'idagi pullar va h.k. larni o'z ichiga oladi.

Depozit turlari

Depozitlarning eng ommabop turlari quyidagicha:

- Talab qilib olingucha omonatlar. Saqlash muddati bo'yicha cheklov yo'q, pul qo'yuvchi mablag'laridan istalgan payt foydalanishi mumkin. Foiz stavkalari boshqa omonat turlariga qaraganda pastroq yoki umuman mavjud emas.
- Muddatli omonatlar (ma'lum muddatga – 3, 6, 9 oyga, 1 va undan ko'proq yilga ochiladigan depozitlar). Depozit summasi omonat muddati yakunlangach egasiga qaytarib beriladi. Yig'ilgan foizlar omonat muddati davomida (har oy, har kvartalda va h.k.) yoki yakunida to'lab beriladi.
- Maqsadli omonatlar. Ma'lum bir maqsadni (masalan, o'qishga to'lov qilish, mashina yoki kvartira sotib olish) ko'zlab pul to'plash uchun ochiladi. Odatda